TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 31 - oktabr 234-10-138-Q/23 Zangiota tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2024-yil uchun band qilib qoʻyish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-642-son qonunining 39-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan, “Oʻzbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2024-yil uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-642-son qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar uchun

xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 289-kishini tashkil etadigan 7 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun - 3 foiz (25 kishi);

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun - 118 kishi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan shaxslar, mehribonlik uylari bitiruvchilari, shuningdek, oily ta‘lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilari uchun -109 kishi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati qo‘shinlaridagi xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - 7 kishi;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun - 13 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun - 16 kishi;

odam savdosidan jabrlanganlar uchun - 1 kishi miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

2. 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta‘minlash uchun 2023-yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi xajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishi, 2024-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismining 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar,

mutaxassisliklar kesimidagi ma‘lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya-gigiena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta‘minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 15-bandiga muvofiq jarima solinishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman xokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Aholi bandligiga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh. Umarxajayeva) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli

korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlansin.

8. Zangiota tuman hokimining 2022-yil 14-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi №546-10-138-Q/22-sonli qarori 2023 yil 31 dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh. Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **E.E.Rustamov**

Zangiota tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
234-10-138-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yishi lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar

RO‘YXATI:

T/r	Tashkilot nomi	Jami ishlovchilar soni	Jami kvotalangan ish orinlari	O‘n tort yoshga tolmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, hamda ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-xunar kollejlarini, texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan shaxslar, Mehribonlik uylari bitiruvchilari shuningdek, oliy ta’lim muassasalarinining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shnilaridagi xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo’sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar
1	Zangiota tuman Tibbiyot birlashmasi	1776	41	25	10	2	2	1	1	
2	“REGIONAL GEOLOGIYA” davlat unitar korxonasi	100	8	2	1	1	1	1	2	
3	“ASIA PORCELAIN TRADE” XK	269	7	2	2		2		1	
4	“AZNUR PLAST” MCHJ	27	2	1			1			
5	“HALOL SUT AGRO” MCHJ	152	5	2			1	1	1	
6	“KENG MAKON” MCHJ	232	6	3		2			1	
7	“KIDDY TOYS” MCHJ	91	3	1	1		1			
8	“MAN JOY-TOYS” MCHJ	31	2	1			1			
9	“MELEK BEST MILK AGRO” MCHJ	34	2	2						
10	“NAZARBEK” sanatoriyasi xo‘jalik bo‘limi	146	5	2	1		1	1		
11	“EXACT” MCHJ	114	3	1			1		1	
12	“O‘RTAOVUL LOG” MCHJ	122	4	2	1		1			
13	“TAKRO-OSIYO” MCHJ	252	7	3			2	1	1	

14	“TECHNO CABLE GROUP QOʻSHMA KORXONASI” MCHJ	219	**5**	2	1	1			1	
15	“TECHNOLOGIES OF REAL TIME” MCHJ	198	**4**	1	1	1	1			
16	“ZANGIOTA ZAM-ZAM” MCHJ	88	**4**	2	2					
17	“ZIYO SHARIF” MCHJ	65	**4**	1	2				1	
18	“GARANT PARK” MCHJ QK	136	**5**	1			2		1	1
19	Zangiota tumani Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	94	**4**	1	2			1		
20	Zangiota tumani 2-Bolalar va oʻsmirlar va sport maktabi	37	**2**	1	1					
21	Zangiota tumani 1-sport maktabi	44	**2**	1				1		
22	Zangiota tumani 2-Kasb-hunar maktabi	62	**3**	1	2					
23	Zangiota tumani Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi	129	**4**	2	1		1			
24	Zangiota tumani Yoʻllardan foydalanish unitar korxonasi	83	**4**	2				1	1	
25	Zangiota tumani Irrigatsiya boʻlimi	42	**2**	1	1					
26	Zangiota tumani Madaniyat boʻlimi	38	**2**	1	1					
27	Zangiota tumani Maktabgacha va maktab ta’limi boʻlimi	54	**3**	1	1			1		
28	Zangiota tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	199	**10**	2			3	1	4	
29	Zangiota Agrotexnalogiyalar texnikumi	57	**3**	1	2					
30	10-Boshlangʻich ta’lim maktabi	35	**2**	1	1					
31	11-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	47	**2**	1	1					
32	11-Umumiy oʻrta ta’lim maktabi	53	**2**		2					
33	12- Umumiy oʻrta ta’lim maktabi	65	**3**	1	2					
34	13-Bolalar musiqa va san’at maktabi	85	**2**	1	1					
35	13-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	35	**2**	1	1					

36	13- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	83	**3**	1	2					
37	14-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	103	**5**	1	2		1	1		
38	15-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	82	**4**	1	2			1		
39	16-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	53	**2**	1	1					
40	16-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	49	**2**		2					
41	17-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	37	**2**	1	1					
42	18-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	61	**2**	1	1					
43	18-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	34	**2**	1	1					
44	19-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	103	**3**	1	2					
45	1-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	85	**2**		2					
46	1-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	**2**	2						
47	20-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	**2**	1	1					
48	20-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	43	**2**		2					
49	21-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	**3**	1	2					
50	22-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	23	**2**	2						
51	25-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	**2**	2						
52	26-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	35	**2**	1	1					
53	27-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	35	**2**	2						
54	27-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	58	**2**		2					
55	28-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	28	**2**		2					
56	2-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	43	**2**	2						
57	2-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	52	**2**		2					
58	30-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	39	**2**	1	1					
59	30-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	**2**		2					
60	31-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	46	**2**	2						
61	31-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	35	**2**		2					

62	32-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	63	**2**	2						
63	32-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	95	**3**		2		1			
64	33-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	42	**2**	2						
65	33-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	66	**3**	1	2					
66	34-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	**2**		2					
67	34-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	29	**1**		1					
68	35-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	72	**1**	1	2					
69	36-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	**2**		2					
70	37-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	48	**3**	1	2					
71	38-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	84	**2**	1	1					
72	3-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	55	**3**	1	2					
73	3- Maktabgacha ta’lim tashkiloti	38	**2**	1	1					
74	40- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	79	**4**	1	2			1		
75	42- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	90	**3**	1	1		1			
76	43- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	**2**		2					
77	4- Maktabgacha ta’lim tashkiloti	60	**3**	2	1					
78	4-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	85	**2**		2					
79	5-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	**2**		2					
80	6-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	55	**2**	1	1					
81	7- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	**2**	1	1					
82	8- Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	103	**3**		2		1			
83	9-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	78	**3**	1	2					
84	5-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	**2**	1	1					
85	35-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	22	**2**	1	1					
86	36-Maktabgacha ta’lim tashkiloti	25	**2**	1	1					
JAMI		**8091**	**289**	**118**	**109**	**7**	**25**	**13**	**16**	**1**